**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MUSURMONOVA MA’MURA OMAN QIZI

SFERIK TO‘SIQLI BIR BOG‘LAMLI VA IKKI BOG‘LAMLI G‘OVAK-ELASTIK SOHALARDA NOSTATSIONAR KO‘NDALANG TO‘LQIN JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA SONLI TADQIQ QILISH

**05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK 519.63+539.3

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MUSURMONOVA MA’MURA OMAN QIZI

SFERIK TO‘SIQLI BIR BOG‘LAMLI VA IKKI BOG‘LAMLI G‘OVAK-ELASTIK SOHALARDA NOSTATSIONAR KO‘NDALANG TO‘LQIN JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA SONLI TADQIQ QILISH

**05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/T2285 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jurayev Gayrat Umarovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Polatov Asxad Muxamedjanovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Qudratov Sulton G'ulomovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Nukus davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" iyun soat 16[00] dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (96 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "05" iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil "22" aprel dagi № 2 -raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M.Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., professor

A.S.Matyakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilayotgan koʻplab ilmiy-amaliy tadqiqotlar koʻp hollarda suyuqlik bilan toʻyingan gʻovak-elastik muhitlarda toʻlqin tarqalishi va difraksiyasi jarayonlarini matematik hamda sonli tadqiq qilish masalalariga keltiriladi. Seysmik mikrohududlarni loyihalashtirish, yerusti va yerosti inshootlarni mustahkamligini oʻrganish, qidiruv geofizikasi amaliyotida neft qatlamlarini aniqlash, neft va gaz konlarida toʻlqin harakati parametrlarini tanlash, shuningdek, geofizikaning amaliy masalalarining yechimini aniqlovchi gʻovak-elastik muhitlarda toʻlqin tarqalishi masalalarini ilmiy tadqiq qilish matematik fizika, tutash muhitlar mexanikasi, gidrodinamika va matematik modellashtirish kabi sohalardagi tadqiqotlarning obyektidir. Shu sababli, nostatsionar toʻlqin tarqalishi va ularning difraksiyasi masalalar bilan tavsiflanuvchi turli xil muhit va jismlarda toʻlqin jarayonlarini modellashtirish, masalalarning yechish algoritmini ishlab chiqish, dasturiy vositalar majmuini yaratish amaliy matematikaning muhim va dolzarb vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda seysmologiya, geofizika va zarbali toʻlqinlarga inshootlarning bardoshligini oʻrganish sohalarida suyuqlik bilan toʻyingan gʻovak muhitlarda nostatsionar toʻlqin tarqalish jarayonlarining adekvat modelini qurish keng tadqiq etilmoqda. Suyuqlik bilan toʻyingan gʻovak-elastik muhitlarning murakkab sohalarida nostatsionar toʻlqinlarning tarqalishi va difraksiyasi jarayonlarini tavsiflovchi matematik modellarni qurish, mos boshlangʻich-chegaraviy masalalarni sonli yechimi va ularning tahlili seysmologiya, geofizika, neft qatlamlarini aniqlash, neft va gaz konlarida toʻlqin harakati parametrlarini tanlash, seysmik jarayonlarni loyihalashda keng tatbiq etiladi. Shu bois, suyuqlik bilan toʻyingan gʻovak-elastik muhitda toʻlqinlarning tarqalishini tavsiflovchi matematik modellarni qurish va sonli yechish algoritmilarini ishlab chiqish dolzarb va maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega boʻlgan matematik fizika, mexanika va energetika sohalaridagi masalalarning sonli va analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yoʻnalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, toʻlqin tarqalishi tenglamalarining amaliy tatbiqiga ega koʻp bogʻlamli murakkab sohalarda nostatsionar toʻlqin tarqalishi jarayonlarini oʻrganishga oid masalalarning sonli-analitik yechishga alohida e’tibor qaratildi. Bunda, chegaralovchi sirtlar bir koordinata sistemasiga tegishli boʻlgan tutash muhit sohasida nostatsionar toʻlqin jarayonining matematik modelini qurish va sonli yechish boʻyicha sezilarli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kabi ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish OʻzR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda gʻovak

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4708-son Qarori.

muhitlardagi nostatsionar to‘lqin jarayonlarini matematik modellashtirish, g‘ovak-elastik muhitning dinamik tenglamalar sistemasini analitik va sonli yechish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tutash muhitlarda to‘lqin tarqalishi va difraksiyasi jarayonlarini ko‘chish, kuchlanish va potensial funksiyalarga nisbatan modellashtirish mumkin. Bu masalalarni analitik-taqribiy yechishda to‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilarni ajratish usuli, chekli-ayirmali variatsion usuli, chekli elementlar usuli, chekli-ayirmali usul, chegaraviy elementlar usuli va boshqa usullar keng foydalaniladi. Ushbu usullar A.G.Gorshkov, A.N.Guz, V.Kabulov, T.Bo‘riyev, M.Mirsaidov, K.Sultonov, F.Badalov, M.Aripov, I.Mirzayev, R.Aloyev, N.Ravshanov, B.Qurmanboyev, A.Xaldjigitov, A.Polatov va boshqalarning ishlarida keng qaralgan.

Suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak muhitlarda to‘lqin jarayonlarini o‘rganish Y.I.Frenkelning ishlari bilan boshlangan. XX-asrning 50-60-yillarida M.Bio (M.Biot) bir o‘lchovli yaqinlashishda gaz bilan to‘yingan g‘ovak muhitda tovush to‘lqinlarining tarqalish tenglamasi muammosini hal qilish modelini taqdim etgan. L.Y.Kosachevskiy, J. Geertsm va R.S.Smith, H. Deresiewicz va J.T. Rice, D.Uayt, N.G.Mixaylova va F.M.Lyaxovitskiylarning ishlarida turli xossali ikki suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik muhitlarning chegarasidan elastik to‘lqinlarning qaytishi va sinishi jarayonlari o‘rganilgan. T.U.Artikov va A.R.Xujayevlar tomonidan suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik muhitlarning egrichiziqli chegarasida garmonik to‘lqinlarning qaytishi va sinishi hamda egrichiziqli chegarali qatlamli muhitlarda elastik to‘lqinlarning tarqalishi haqidagi masalalarning yechimlari olingan.

Ikki komponentali elastik va suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak muhitlarda yassi, sferik va silindrik to‘lqinlarning tarqalishi haqidagi o‘qsimmetrik masalalar X.L.Raxmatulin, Y.U.Saatov, I.G.Filippov, T.U.Artikovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qaralgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda matematik fizika tenglamalari yordamida tavsiflanadigan jarayonlarni matematik modellashtirish, sonli va ularni taqribiy yechish usullari M.M.Aripov, N.Ravshanov, X.X.Imomnazarov, N.M.Jabborov, R.Dj.Aloyev, A.M.Polatov, I.Q.Xo‘jayev, A.Xaydarov, F.Nuraliyev, G.U.Jurayev, A.E.Xolmurodov, Sh.A.Sadullayeva, E.SH.Nazirova, Z.R.Raxmonov, A.S.Matyakubov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassa-sasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining “Tutash muhitlarning ko‘p bog‘lamli sohalarida nostatsionar to‘lqin jarayonlarining tadqiqoti” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sferik to‘siqli bir bog‘lamli va ikki bog‘lamli g‘ovak-elastik muhitli sohalarda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi va difraktsiyasi jarayonini matematik modellashtirish va samarali yechish algoritmlarni ishlab chiqish asosida dasturlar majmuasini yaratishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

sferik to‘siqli bir bog‘lamli va ikki bog‘lamli g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayonining matematik modelini qurish;

bir bog‘lamli sohalarda g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayoniga mos masalaning yechish algoritmini ishlab chiqish;

ikki bog‘lamli sohalarni chegaralovchi sirtlar turli koordinata sistemasiga tegishli bo‘lganda g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqa-lishi jarayoniga mos masalaning yechish algoritmini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan algoritmlar asosida g‘ovak-elastik muhitda to‘lqin tarqalishi jarayoninining tahlili uchun dasturlar majmuini yaratish va sonli natijalar olish;

chegaraviy sirtlarining muhitning kuchlanish-deformatsiya holatiga ta’sirini o‘rganishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti sferik to‘siqli murakkab sohaga ega suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak muhitdagi nostatsionar to‘lqin jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak muhitda nostatsio-nar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishining dinamik jarayonlarini matematik modellash-tirish, sonli hisoblash uchun samarali algoritmlar va dasturlar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada vaqt bo‘yicha Laslas integral almashtirishlarining tasvirlar fazosida to‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilarga ajratish-ning umumlashgan Furye usuli bilan matematik fizika tenglamalarini yechish, turli koordinatadan birdan ikkinchisiga o‘tishda Bessel funksiyalari uchun qo‘shish teoremasi, chiziqli cheksiz algebraik tenglamalar sistemasini cheksiz qatorlar yordamida yechish, rekurrent munosabatlar va Laplas almashtirishlaring tasvirlar fazosidan originalga o‘tishda kompleks o‘zgaruvchilar nazariyasining qoldiqlar nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

g‘ovak-elastik muhitning sferik to‘siqli bir bog‘lamli va ikki bog‘lamli sohalarida nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayonining tavsiflovchi xususiy hosilali differensial tenglamadan iborat matematik modeli qurilgan;

g‘ovak-elastik muhitning bir bog‘lamli sohasida nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayoniga mos masalalarning tasvirlar fazosida yechimlari olingan;

ikki bog‘lamli sohalarni chegaralovchi sirtlar bir koordinata sistemasiga tegishli bo‘lmaganda g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayoniga mos masalalarning tasvirlar fazosida yechimlari topilgan;

sferik to‘siqli bir bog‘lamli g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayoniga mos masalaning yechish algoritmini ishlab chiqilgan;

ikki bog‘lamli sohalarni chegaralovchi sirtlar bir koordinata sistemasiga tegishli bo‘lmaganda g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayoniga mos masalaning yechish algoritmini ishlab chiqilgan;

chegaraviy sirtlarning muhitning kuchlanish-deformatsiya holatiga ta’siri, ya’ni muhitni chegaralovchi sirtlardan to‘lqinlarning ko‘p marta qaytishi muhitning kuchlanish-deformatsiya holatini o‘zgarishiga olib kelishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g‘ovak-elastik muhitda to‘lqin tarqalishi jarayonining tahlili uchun dasturlar majmui yaratilgan va sonli natijalar olingan;

g‘ovak-elastik muhitda nostatsionar jarayonlari uchun boshlang‘ich – chegaraviy masalalarning analitik yechishning algoritmi ishlab chiqilgan va sonli hisoblash uchun dasturlar majmuasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada olingan matematik modelning korrektligi, tutash muhitlarning ishonchli modeli foydalanilganligi, ko‘p marta sinovlardan o‘tgan matematik apparatlarining qo‘llanilganligi, yechimni topishda matematik asoslangan usullardan foydalanilganligi hamda aniq analitik hollarda olingan natijalar va xulosalarni ma’lum yechimlar bilan o‘zaro mos kelishi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matematik modellashtirish nazariyasida muhim bo‘lgan murakkab sohalar uchun yangi masalalarning yechimi qurilganligi hamda ko‘chish va kuchlanishlar uchun sonli eksperementlarning natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, chegaraviy sirtlarning muhitning kuchlanish deformatsiya holatiga ta’sirlari tahlillaridan olingan natijalarni ilmiy-tadqiqot institutlari va loyihalashtirish tashkilotlarida konstruksiyalar va inshootlarning mustakamlikligini va seysmik bardoshlikni hisoblashlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sferik to‘siqli bir bog‘lamli va ikki bog‘lamli g‘ovak-elastik sohalarda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin jarayonlarini modellashtirish va sonli tadqiq qilish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

g‘ovak-elastik muhitlarda turli koordinata sistemasi sirtlari bilan chegaralangan sohalarda to‘lqin difraksiyasining jarayonlarining chiziqli matematik modeli va analitik yechimi qiymatlaridan OT-Atex-2018-340-“Ikki tezlikli muhit dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq etish” grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi Davlat universitetining 2025-yil 30-yanvardagi №04/146 sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash olingan nostatsionar to‘lqin jarayonlariga mos modellar va giperbolik tenglama uchun boshlag‘ich-chegaraviy masalalarning yechish algoritmlari hamda dasturiy ta’minoti bo‘yicha olingan sonli natijalar tahlil qilishda va sonli eksperiment sinovlarini baholash imkonini bergan;

seysmomikrohududlashtirishda inshootlarning seysmikbardoshligi va seysmik xavfsizligini ta’minlash uchun sferik to‘siqdan nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayonida yer yuzasiga yaqin nuqtalarda ko‘ndalang siljish $u_{\vartheta,max}$=0,58m va kuchlanishning $\sigma_{r\vartheta,max}$=6,2MPa, $\sigma_{\theta\vartheta,max}$=2,05MPa maksimal qiymatlari kabi ilmiy natijalaridan Seysmologiya institutida bajarilishi 2020 – 2024-yillarga mo‘ljallangan “Yer qobig‘idagi lokal seysmik faol tektonik yoriqlarning texnogen kuchlanganlik va deformatsiyalanish holatini baholaydigan miqdoriy modellarni ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental tadqiqot natijalari parametrlarini tahlil qilishda va baholashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 14-maydagi № 2/1255-1056 sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash yer sirtiga yakin nuqtalardagi nostatsionar to’lqinlar jarayonlari ta’siriga bardoshli inshootlarni loyihalashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 13 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, yaratilgan kompyuter dasturiy mahsulotlar uchun 3 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi – 105 bet.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik muhitlar nazariyasining dinamik munosabatlari”** deb nomlanuvchi birinchi bobi suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik muhitning chiziq to‘lqinlar tarqalishini va difraksiyasi jarayonlarini tavsiflovchi nazariyasining dissipativ kuchlarni e’tiborga olmagan holda asosiy munosabatlariga bag‘ishlangan. Adabiyotlarning qisqacha tahlili berilgan. Zarbali to‘lqinlarning to‘siqlar bilan o‘zaro ta’siri uchun chegaraviy shartlar hamda murakkab sohalar uchun masalalarning qo‘yilishi keltirilgan. Nostatsionar masalalarni yechishda foydalaniladigan Bessel funksiyalari va Gegenbaeur ortogonal ko‘phadlarning ba’zi xossalari, Bessel funksiyalari uchun qo‘shish teoremasi hamda Laplas integral almashtirishlarining fazosida eksponentlar bo‘yicha cheksiz qator originalining chekliligi haqida teoremasi ifodalangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bir koordinata sistemasi sirtlari bilan chegaralangan sohalarda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin jarayonlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda birinchi bobda berilgan muhitning harakat tenglamalari, chegaraviy shartlar asosida bir bog‘lamli hamda faqat bir sferik (r, θ, ϑ) koordinata sistemasiga tegishli sirtlari bilan chegaralangan sohalarda nostatsionar masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu sferik koordinata sistemasining boshlang‘ich nuqtasi o‘zaro konsentrik sferik sirtlar markazida joylashgan.

Ikkinchi bobning **2.1 paragrafida** suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik muhitning ichki va tashqi radiuslari mos ravishda R_1 va R_2 $(R_1 < R_2)$ bo‘lgan o‘zaro konsentrik sferik sirtlar bilan chegaralangan sferik qatlamda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin jarayonlari o‘rganilgan bo‘lib, unda muhit nuqtalarida ko‘chish va kuchlanish tenzori komponentalari uchun formulalar olingan. Vaqtning boshlang‘ich $\tau = 0$ momentida sferik qatlam tinch holatda bo‘ladi.

A masala. Sferik qatlamning ichki sirtida o‘qsimmetrik (ϑ burchakka bog‘liq emas) urinma sirt kuchi $q(\tau, \theta)$ qo‘yilgan bo‘lib, u muhitni sferalar markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida aylanma harakatini yuzaga keltiradi:

$$\sigma_{r\vartheta}\big|_{r=R_1} = q(\tau, \theta). \qquad (1)$$

B masala. Qatlamning ichki sirtida urinma ko‘chish $V(\tau, \theta)$ berilgan:

$$u_\vartheta\big|_{r=R_1} = V(\tau, \theta). \qquad (2)$$

Qatlamning tashqi sirti erkin sirt

$$\sigma_{r\vartheta}\big|_{r=R_2} = 0 \qquad (3)$$

yoki unda ko‘chish nolga teng

$$u_\vartheta\big|_{r=R_2} = 0. \qquad (4)$$

Muhitning harakati potensialga nisbatan ψ to‘lqin tenglamasi bilan tasvirlanadi:

$$\gamma^2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial \tau^2} = \Delta\psi - \frac{\psi}{r^2 \sin^2\theta}, \qquad \Delta = \frac{1}{r^2}\frac{\partial}{\partial r}\left(r^2 \frac{\partial}{\partial r}\right) + \frac{1}{r^2 \sin\theta}\frac{\partial}{\partial\theta}\left(\sin\theta \frac{\partial}{\partial\theta}\right) \qquad (5)$$

Boshlang‘ich shartlar – bir jinsli

$$\psi\big|_{\tau=0} = \dot{\psi}\big|_{\tau=0} = 0. \qquad (6)$$

(1) - (6) boshlang‘ich-chegaraviy masala τ vaqt bo‘yicha Laplas integral almashtirishlari (L almashtirishlar transpormantasini, s esa almashtirishlar parametri bildiradi) va to‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan yechiladi. Tasvirlar fazosida ψ^L potensialni, ko‘chish vektorining u_ϑ^L komponentasi va kuchlanish tenzorining $\sigma_{r\vartheta}^L$ komponentasini Gegenbauer ortogonal $C_{n-1}^{3/2}(\cos\theta)$ ko‘phadlari bo‘yicha cheksiz qatorlari ko‘rinishida tasvirlab olingan.

Bu holda (1) - (6) boshlang‘ich-chegaraviy masalaning qo‘yilishi cheksiz qatorlar koeffitsiyentlariga nisbatan quyidagi ko‘rishga keladi:

$$\sigma_{r\vartheta n}^{L}\Big|_{r=R_1}=q_n^L(s),\qquad \text{yoki}\quad u_{\vartheta n}^{L}\Big|_{r=R_1}=V_n^L(s),\tag{7}$$

$$\sigma_{r\vartheta n}^{L}\Big|_{r=R_2}=0,\qquad \text{yoki}\quad u_{\vartheta n}^{L}\Big|_{r=R_2}=0,\tag{8}$$

$$\gamma^2 s^2\psi_n^L=\Delta_n\psi_n^L.\tag{9}$$

Tasvirlar fazosida (9) tenglamaning yechimi soha chegaralanganligi uchun

$$\psi_n^L(r,s)=\frac{1}{\sqrt{r}}A_n^L(s)K_{n+1/2}(r\gamma s)+\frac{1}{\sqrt{r}}B_n^L(s)I_{n+1/2}(r\gamma s),\tag{10}$$

ko‘rinishda izlanadi. Bu yerda $I_{n+1/2}(x)$ va $K_{n+1/2}(x)$ - mos ravishda Besselning birinchi va ikkinchi tur modifikatsiyalangan funksiyalari; $A_n^L(s)$ va $B_n^L(s)$ lar s parametrning noma’lum funksiyalari.

Ko‘chish va kuchlanishlarning o‘zaro bog‘lanishi hamda ko‘chishning potensial orqali bog‘lanishlaridan foydalanib, topilgan ifodalar bilan (7) va (8) chegaraviy shartlarni qanoatlantirgandan so‘ng, Laplas integral almashtirishining tasvirlar fazosida cheksiz algebraik tenglamalar sistemasiga kelamiz va uni matritsali tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yozib olamiz:

$$\begin{cases}\mathbf{MA}y^2+\mathbf{F}_1\mathbf{B}-\mathbf{F}_2\mathbf{B}y^2=\mathbf{k}y\\ \mathbf{NA}x^2+\mathbf{T}_1\mathbf{B}-\mathbf{T}_2\mathbf{B}x^2=0\end{cases}\tag{11}$$

$$\mathbf{k}(s)=\left\|k_1(s),k_2(s),...\right\|^T,\qquad \mathbf{A}(s)=\left\|A_1^L(s),A_2^L(s),...\right\|^T,\qquad \mathbf{B}(s)=\left\|B_1^L(s),B_2^L(s),...\right\|^T,$$

$$x=e^{-R_2\gamma s},\qquad y=e^{-R_1\gamma_3 s}.$$

Bu yerda $\mathbf{F}_i$, $\mathbf{T}_i$, $\mathbf{M}$, $\mathbf{N}$ lar elementlari mos ravishda $F_{in}(s)$, $T_{in}(s)$ $(i=1,2)$, $M_n(s)$, $N_n(s)$ bo‘lgan cheksiz diagonalli matritsalar.

(11) tenglamalar sistemasining yechimni eksponentalar bo‘yicha cheksiz qatorlar shaklida tasvirlaymiz:

$$\mathbf{A}=\sum_{i,j=0}^{\infty}\mathbf{a}_{ij}(s)x^i y^{-j-1},\qquad \mathbf{B}=\sum_{i,j=0}^{\infty}\mathbf{b}_{ij}(s)x^i y^{-j-1}\tag{12}$$

$$\mathbf{a}_{ij}(s)=\left\|a_{ij}^{(1)}(s),a_{ij}^{(2)}(s),...\right\|^T,\qquad \mathbf{b}_{ij}(s)=\left\|b_{ij}^{(1)}(s),b_{ij}^{(2)}(s),...\right\|^T.$$

(12) cheksiz qatorlar va (11) matritsali tenglamalar sistemasidan $a_{ij}^{(n)}(s)$, $b_{ij}^{(n)}(s)$, $(n=1,2,...)$ koeffitsiyentlar uchun rekurrent munosabatlar va ularga boshlang‘ich shartlar kelib chiqadi. Bu rekurrent munosabatlar $\mathbf{a}_{ij}(s)$, $\mathbf{b}_{ij}(s)$ funksiyalarni Laplas integral almashtirishlari s parametrining ratsional funksiyalari ko‘rishida aniqlashga imkon beradi. Bu esa ko‘chish va kuchlanish qatorlarining koeffitsiyentlarini ham ratsional funksiyalari ko‘rinishida olishga va ularning originallarini qoldiqlar nazariyasidan foydalanib topishga imkon yaratadi.

Sferik qatlam nuqtalaridagi ko‘chish va kuchlanish uchun analitik formulalar olingan. Ularning originallari qoldiqlar nazariyasi yordamida juda qiyinchiliksiz topiladi va ular Gegenbauer ortogonal ko‘phadlari bo‘yicha qatorlar bilan qo‘yilgan masalaning yechimini beradi.

Ikkinchi bobning **2.2 paragrafida** esa murakkabroq masala o‘rganilgan, ya’ni suyuqlik bilan to‘yingan chegaralanmagan g‘ovak-elastik fazoda joylashgan, ichki va tashqi radiuslari mos ravishda R_1 va R_2 ($R_1 < R_2$) bo‘lgan o‘zaro konsentrik sferik sirtlar bilan chegaralangan bir jinsli izotropik qalin sferik qobiqdan nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalish jarayonining matematik modeli tuzilib, yechish algoritmi ishlab chiqilgan. Bu yerda ham berilgan va izlanayotgan funksiyalar Gegenbauer ortogonal ko‘phadlari bo‘yicha cheksiz qatorlari yoyilib, vaqt bo‘yicha Laplas integral almashtirishlari fazosida masalani yechish (11) kabi cheksiz algebraik tenglamalar sistemasiga keltirilgan. Qalin sferik qobiq va atrof muhit nuqtalarida ko‘chish vektori va kuchlanish tenzori komponentalari uchun aniq ifodalar olingan.

Ikkinchi bobning **2.3 paragrafi** suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik fazoda joylashgan R radiusli sferik (bo‘shliq yoki qattiq shar) to‘siqda nostatsionar yassi ko‘ndalang to‘lqinning difraksiyasi jarayonini matematik modellashtirish bilan o‘rganishga bag‘ishlangan.

Vaqtning boshlang‘ich $\tau = 0$ momentida sferik to‘siq sirtining old tomonida joylashgan nuqtasiga berilgan ψ_s potensial bilan

$$\psi_s(r,\theta,\tau) = f[\tau + \gamma(r\cos\theta - R)]H[\tau + \gamma(r\cos\theta - R)] \tag{13}$$

nostatsionar yassi ko‘ndalang (*S*-to‘lqin) to‘lqin fronti kelib urinadi. Bu sferik to‘siq markazidan o‘tuvchi Ox o‘q atrofida muhitning aylanma hakatini yuzaga keltiradi. Bu yerda $f(\tau)$ berilgan funksiya bo‘lib, u vaqt bo‘yicha potensialning o‘zgarishini ifrodalaydi; $H(\tau)$ esa Xevisayd birlik funksiyasi.

A masala. Sferik bo‘shliq sirtida kuchlanish nolga teng

$$(\sigma_{r\vartheta} + \sigma_{r\vartheta s})\big|_{r=R} = 0, \tag{14}$$

ya’ni erkin sirt. Bu sferik bo‘shliqqa mos keladi.

B masala. Qattiq shar sirtida ko‘chish nolga teng

$$(u_\vartheta + u_{\vartheta s})\big|_{r=R} = 0. \tag{15}$$

Bu holda to‘siq sirti qattiq sirtdir. Bu qattiq sharga mos keladi. $u_{\vartheta s}$ va $\sigma_{r\vartheta s}$ lar mos ravishda berilgan ψ_s potensial bilan aniqlanuvchi ko‘chish vektori va kuchlanish tenzorining komponentlari; «s» indeks bilan tushuvchi to‘lqin bilan aniqlanuvchi muhitning kuchlanish-deformatsiya holatiga komponentalari belgilangan.

Masalaning o‘qsimmetrikligini e’tiborga olib, muhitning harakati elastik ψ potensialga nisbatan (5) to‘lqin tenglamasi bilan tasvirlanadi. Boshlang‘ich shartlar – bir jinsli (6).

Cheksizlikda to‘lqin mavjud emas

$$\lim_{r\to\infty} \psi = 0. \tag{16}$$

Laplas integral almashtirishlari fazosida izlanayotgan funksiyalar Gegenbauer ortogonal ko‘phadlari bo‘yicha cheksiz qatorlarining koeffitsiyentlari uchun ratsional funksiyalar ko‘rinishida ifodalar olingan. Bu ularning originallarini topishda qoldiqlari nazariyasidan foydalanishga imkon beradi. Ko‘chish vektori va kuchlanish tenzori komponentalari uchun aniq formulalar olingan.

Ikkinchi bobning **2.4 paragrafida** oldingi paragraflardagi masalalarning yechimlari asosida o‘tkazilgan sonli eksperementlarning natijalari keltirilgan. Sonli qiymatlar miqdorlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishlari sifatida grafiklar ko‘rinishida tasvirlangan. Sonli eksperimentlar natijalari τ o‘lchovsiz vaqt bo‘yicha kuchlanish tenzori $\sigma_{\theta\vartheta}$ va ko‘chish vektori u_ϑ komponentalarining o‘zgarishi grafiklar ko‘rinishida keltirilgan. G‘ovak-elastik muhit sifatida kerosin bilan to‘yingan qumloq ($A = 0.4026 \cdot 10^9\,\text{Pa}$, $N = 0.2493 \cdot 10^9\,\text{Pa}$, $R = 0.0672 \cdot 10^9\,\text{Pa}$, $Q = 0.0295 \cdot 10^9\,\text{Pa}$, $\beta_0 = 0.26$, $\rho_s = 2600\ kg/m^3$, $\rho_f = 820\ kg/m^3$) olingan bo‘lib, bunga o‘lchovsiz parametrlarning $\eta_1 = 0.8772$, $\chi = 0.392$, $\gamma = 1.0$, $\beta_3 = 0.0088331$ qiymatlari mos keladi.

Berilgan kuchning vaqt bo‘yicha o‘zgarish qonuni sifatida Xevisayda funksiyasi $q(\tau,\theta) = q_0 H(\tau)$, $q_0 = 1$ tanlandi va sferik qatlamning ichki va tashqi radiuslar mos ravishda $R_1 = 1$, $R_2 = 2.5$ qiymatlarga teng deb olingan. Gegenbauer ortogonal ko‘phadlari bo‘yicha qatorlarning yettita hadining yig‘indisini hisoblangan holda sonli natijalar olindi.



1-rasm.



2-rasm.

1-rasmda vaqt bo‘yicha $\sigma_{\theta\vartheta}$ kuchlanishni qatlamning turli nuqtalarida: $r = 1$, $\theta = 3\pi/4$ (1 – egri chiziq), $r = 1.5$, $\theta = 3\pi/4$ (2 – egri chiziq) va $r = 2.0$, $\theta = 3\pi/4$ (3 – egri chiziq) o‘zgarishi grafiklari tasvirlangan. 2-rasmda ko‘chish vektori u_ϑ komponentasining sferik qatlamning turli nuqtalarida vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni aks ettiruvchi: $r = 1$, $\theta = 3\pi/4$ (1-egri chiziq), $r = 1.5$, $\theta = 3\pi/4$ (2-egri chiziq) va $r = 2.0$, $\theta = 3\pi/4$ (3-egri chiziq) grafiklar keltirilgan.

Kerosin bilan to‘yingan qumloqda joylashgan tashqi va ichki radiuslari mos ravishda $R_1 = 1$, $R_2 = 2.5$ bo‘lgan qalin ($E = 0.89 \cdot 10^4\,\text{MPa}$, $\nu = 0.243$, $\rho = 2850\ kg/m^3$) ohak shpatli qobiqdan nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi qaralgan. Bularga $\beta_1 = 0.0974$, $\beta_2 = 1$, $\beta_3 = 0.0088331$, $\gamma_1 = 1$, $\gamma_2 = 3.3$, $\kappa = 0.321$, $\eta_1 = 0.8772$, $\chi = 0.392$ o‘lchovsiz miqdorlar mos keladi. 3-rasmda qalin qobiq $\sigma_{r\vartheta}^{(1)}$ kuchlanishning vaqt bo‘yicha nuqtalarida o‘zgarishi sonli natijalari $r = 1$, $\theta = \pi/4$ (1-egri chiziq), $r = 1.5$, $\theta = \pi/4$ (2-egri chiziq), $r = 1.5$, $\theta = \pi/2$ (3-egri chiziq) va $r = 2.5$, $\theta = \pi/4$ (4-egri chiziq) grafiklar bilan tasvirlangan. Bu yerda ham berilgan kuchni vaqt bo‘yicha o‘zgarishi $q_1(\tau,\theta) = q_0 H(\tau)$, $q_0 = 1$ Xevisayd funksiyasi ko‘rinishida olingan. 4-rasmda esa $\sigma_{\theta\vartheta}^{(1)}$ kuchlanishning vaqt bo‘yicha nuqtalarida o‘zgarishi sonli natijalari $r = 1$, $\theta = \pi/4$ (1-egri chiziq), $r = 1.5$, $\theta = \pi/4$ (2-egri chiziq) grafiklar bilan berilgan.



3-rasm.



4-rasm.

Misol uchun o‘lchovsiz parametrlari $\beta = 0.0088331$, $\gamma = 1$, $\eta = 0.8772$, $\chi = 0.392$ bo‘lgan kerosin bilan to‘yingan qumloqda joylashgan qattiq sharda nostatsionar yassi ko‘ndalang to‘lqin difraksiyasini qaraymiz. Tushuvchi to‘lqin potensialida kuchlanish o‘zgarishi Xevisayd birlik funksiyasi ko‘rinishida olingan.



5-rasm.



6-rasm.

5-rasmda vaqt bo‘yicha $\sigma_{r\vartheta}$ kuchlanishning $r = 1$, $\theta = \pi/4$ (1-egri chiziq), $r = 1.5$, $\theta = \pi/4$ (2-egri chiziq) va $r = 2.0$, $\theta = \pi/4$ (3-egri chiziq) nuqtalardagi o‘zgarishi grafiklari keltirilgan. 6-rasmda esa vaqt bo‘yicha u_ϑ ko‘chishning ham mos ravishda yuqoridagi nuqtalardagi o‘zgarishi grafiklari berilgan.

Dissertatsiyaning **“Turli koordinata sistemasi sirtlari bilan chegaralangan sohalarda nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin jarayonlari”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida olingi bobdagi o‘rganilgan masalalarga nisbatan murakkabroq masalalar qaralgan. Unda birinchi bobda berilgan muhitning harakat tenglamalari, chegaraviy shartlar asosida turli koordinata sistemasiga tegishli sirtlar bilan chegaralangan ikki bog‘lamli sohalarda nostatsionar ko‘ndalang tarqalishi va difraksiyasi masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Uchinchi bobning **3.1 paragrafida** suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik yarimfazoning tekis sirtidan h masofa joylashgan R radiusli sferik qo‘yilma (bo‘shliq yoki shar)dan nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi jarayonlarni modellashtirish va yechish algoritmini ishlab chiqish qaralgan. Bu holda bir jinsli chiziqli suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik $z \geq 0$ yarimfazoning $z = 0$ tekis sirtidan $O_2 z$ o‘q bo‘yicha (O_2 nuqta yarimfazoning tekis chegarasida yotadi) h masofada R ($R < h$) radiusli sferik bo‘shliq yoki absolyut qattiq shar O markazi joylashgan.

A masala. Sferik bo‘shliqning ichki sirtida o‘qsimmetrik (1) urinma sirt kuchi $q(\tau, \theta)$ qo‘yilgan bo‘lib, u muhitni yarimfazoning tekis sirtiga perpendikulyar va sfera markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida muhitning aylanma harakatini yuzaga keltiradi.

B masala. Bo‘shliqning ichki sirtida (2) urinma ko‘chish $V(\tau, \theta)$ berilgan.

Masalaning o‘qsimmetrikligini e’tiborga olib, muhitning harakati elastik ψ potensialga nisbatan (5) to‘lqin tenglamasi orqali tasvirlanadi. Boshlang‘ich shartlar – bir jinsli va cheksizlikda to‘lqin so‘nadi.

Yarimfazoning yassi sirti mutlaq qattiq sirt

$$u_{\vartheta}\big|_{z=0} = 0\,, \tag{17}$$

yoki kuchlanishdan holi erkin sirt

$$\sigma_{z\vartheta}\big|_{z=0} = 0\,. \tag{18}$$

Ikkinchi bobdagi kabi bu yerda ham Laplas integral almashtirishining tasvir fazosida masala cheksiz algebraik tenglamalar sistemasini yechishga keltirilgan va uni matritsali tenglama ko‘rinishida yozib olamiz:

$$\mathbf{M}(s)\mathbf{A}(s)y^2 + \mathbf{F}^{(1)}(s)\mathbf{A}(s)x + \mathbf{F}^{(2)}(s)\mathbf{A}(s)xy^2 = \mathbf{q}(s)y\,,\ x = e^{-2h\gamma s}\,,\ y = e^{-\gamma s}\,. \tag{19}$$

(19) matritsali tenglamaning yechimini eksponentalar bo‘yicha cheksiz qator ko‘rinishda izlanadi. Suyuqlik bilan to‘yingan muhit-elastik muhit nuqtalaridagi ko‘chish vektori va kuchlanish tenzori komponentalari qatorlarining koeffitsiyentlari uchun aniq ifodalar olingan.

Uchinchi bobning **3.2 paragrafida** suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik fazoning ikki sferik qo‘yilma (ikki bo‘shliq, yoki ikki qattiq shar, yoki bo‘shliq va shar bo‘lishi mumkin) bilan nostatsionar ko‘ndalang tebranishini modellashtirish va yechish algoritmini ishlab chiqish o‘rganilgan. Bu yerda cheksiz suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik fazoda radiuslari mos ravishda R_1 va R_2 bo‘lgan ikki sferik qo‘yilma joylashgan. Ularning markazlari orasidagi masofa l ($l > R_1 + R_2$) ga teng. Muhit harakatini ikki koordinatalar sistemasini qaraymiz: biri markazi O_1 nuqta bo‘lgan sferik ($r_1, \theta_1, \vartheta_1$) koordinatalar sistemasi, ikkinchisi esa boshlang‘ich nuqtasi O_2 bo‘lgan sferik ($r_2, \theta_2, \vartheta_2$) koordinatalar sistemasi.

A masala. Birinchi sferik qo‘yilma sirtida o‘qsimmetrik urinma sirt kuchi $q_1(\tau, \theta_1)$ qo‘yilgan bo‘lib, u muhitni sferalar markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida aylanma harakatini yuzaga keltiradi:

$$\sigma_{r_1\vartheta_1}\big|_{r_1=R_1} = q_1(\tau, \theta_1)\,. \tag{20}$$

B masala. Sirtida urinma ko‘chish $V_1(\tau, \theta_1)$ berilgan:

$$u_{\vartheta_1}\big|_{r_1=R_1} = V_1(\tau, \theta_1)\,. \tag{21}$$

Ikkinchi sferik to‘siq sirti - erkin sirt

$$\sigma_{r_2\vartheta_2}\big|_{r_2=R_2} = 0 \tag{22}$$

yoki unda ko‘chish nolga teng

$$u_{\vartheta_2}\Big|_{r_2=R_2}=0. \qquad (23)$$

Muhitning harakati elastik ψ potensiallarga nisbatan to‘lqin tenglamasi bilan tasvirlanadi. Boshlang‘ich shartlar – bir jinsli va cheksizlikda to‘lqin mavjud emas.

Masalani yechish Laplas integral almashtirishining tasvirlar fazosida (11) kabi cheksiz algebraik tenglamalar sistemasini yechishga keltiriladi. Matritsali tenglamalar sistemasining yechimini eksponentalar bo‘yicha (12) ga o‘xshash cheksiz qatorlar ko‘rinishda izlanadi. Suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik muhit nuqtalaridagi ko‘chish vektori va kuchlanish tenzori komponentalari uchun aniq formulalar topilgan.

Uchinchi bobning **3.3 paragrafidagi** nostatsionar masala 2.3 paragrafi o‘rganilgan masalaga nisbatan murakkabroq bo‘lib, u suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik yarimfazoning tekis sirtidan h masofa joylashgan R radiusli sferik to‘siq (bo‘shliq yoki shar) da nostatsionar yassi ko‘ndalang to‘lqin difraksiyasi jarayonni matematik modellashtirish va yechish algoritmini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Bu holda bir jinsli chiziqli suyuqlik bilan to‘yingan g‘ovak-elastik $z\geq 0$ yarimfazoning $z=0$ tekis sirtidan O_2z o‘q bo‘yicha (O_2 nuqta yarimfazoning tekis chegarasida yotadi) h masofada R radiusli sferik to‘siq (bo‘shliq yoki absolyut qattiq shar) O markazi joylashgan ($R<h$).

Vaqtning boshlang‘ich $\tau=0$ momentida sferik to‘siq sirtining old tomonida joylashgan nuqtasiga berilgan ψ_s potensial bilan (13) nostatsionar yassi ko‘ndalang (S-to‘lqin) to‘lqin fronti kelib urinadi. Bu sferik to‘siq markazidan o‘tuvchi Ox o‘q atrofida muhitning aylanma harakatini yuzaga keltiradi.

